

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY MUAMMOLARINING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamonova</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> “MODERNIZATSIYA” TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVIY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqto'v O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javlijeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

ARCHAEOLOGICAL MAP OF OLTINSOY DISTRICT

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

Engineer at the Department of Scientific Research,
Innovations, and Training of Scientific and Pedagogical Personnel
Termez State University
E-mail: mirqosim11@mail.ru

Abstract. This article examines the history, geographical location, and toponymy of Oltinsoy District in Surkhondaryo Region, as well as presents a list and map of the archaeological sites located in the area. Oltinsoy District is situated in the central part of Surkhondaryo Region and borders Denov, Sho'rchi, Qumqo'rg'on, and Boysun districts. In antiquity, this territory was part of Bactria, while in the medieval period it belonged to the historical and cultural region of Tokharistan. At present, 44 archaeological sites have been identified in Oltinsoy District. The article provides a descriptive analysis of these sites, classified according to periods: the Bronze Age, the Early Iron Age, the Kushan period, the Early Middle Ages, the Developed Middle Ages, and the Late Middle Ages.

Keywords: Oltinsoy District, archaeological map, Bactria, Tokharistan, archaeological site.

OLTINSOY TUMANI ARXEOLGIK XARITASI

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

Termiz davlat universiteti
Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi muhandisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanining tarixi, geografik joylashuvi, toponimikasi va hududda joylashgan arxeologik yodgorliklar ro'yxati va xaritasi keltirib o'tiladi. Oltinsoy tumani Surxondaryo viloyatining markaziy qismida, Denov, Sho'rchi, Qumqo'rg'on, Boysun tumanlari bilan chegaradosh hududda joylashgan hudud bo'lib, qadimda Baqtriya, o'rta asrlarda Toxariston tarixiy-madaniy viloyatining tarkibida bo'lgan. Hozirgi kunda Oltinsoy tumanida 44 ta arxeologik yodgorlik aniqlangan bo'lib, maqolada yodgorliklarni bronza, ilk temir, kushonlar davri, ilk o'rta asrlar, rivojlangan o'rta asrlar hamda so'nggi o'rta asrlar davri yodgorliklariga ajratgan holda tavsif berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Oltinsoy tumani, arxeologik xarita, Baqtriya, Toxariston, arxeologik yodgorlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N08>

Kirish. Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumani 1981-yil 23-noyabrda tashkil etilgan. Bu tuman kichik va yosh tumanlardan biri bo'lib, hududi 0,56 ming km² ni tashkil qiladi. Oltinsoy tumani hududi asosan Surxondaryo viloyatining shimoliy qismidagi tekisliklariga to'g'ri keladi. Tuman maydoni sharqqa qarab pasayib boradi, g'arbiy qismi esa Keragatog' etaklariga tutashgan.

Tumanga nom bo'lgan "Oltinsoy" so'zi tuman tashkil topayotgan vaqtda berilgan nomdir. Bu nom bugungi kunda tuman markazidan oqib o'tuvchi daryoga nisbatan qo'llanilgan. Oltinsoy daryosini mahalliy xalq tomonidan "Tentaksoy" daryosi deb ham ataladi. Chunki suv toshqinlari hamda sel kelishi sababli daryo o'z o'zanini ko'p o'zgartirgan. Shu sababli daryo

nomini mahalliy xalq “Tentaksoy” deb nomlagan. Keyinchalik bu hududda yangi tuman paydo bo'lishi bilan daryo nomi va tuman nomi Oltinsoyga o'zgargan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Hududning arxeologik o'rganilishi tarixi. Oltinsoy tumani arxeologik yodgorliklariga tasnif beradigan bo'lsak, G. Pugachenkova [5], T. Belyaeva va Z. Hakimov [3], A. Sagdullayev [8], E. Rtveladze [7] lar tomonidan dastlabki tadqiqot ishlari olib borilgan. Bundan tashqari tuman arxeologik yodgorliklari haqida umumiy ma'lumot beradigan Z. A. Arshavskaya, E. V. Rtveladze, Z. A. Xakimovlar hammuallifligidagi hamda S. Strayd [10] tomonidan tuzib chiqilgan kataloglar mavjud. Shuningdek, MAFOuz B [9] hisobotlari, L. I. Rempel [6] tomonidan o'rganilgan tuman arxitektura yodgorliklari haqidagi ma'lumotlar hamda D. O. Karimova [4] tomonidan olib borilgan Mullali bosqichi jamoasining dafn marosimlari to'g'risidagi tadqiqot ishlari natijalari mavjud.

Qadimda Boysuntog' daralaridan chiqqan Xo'jaipok suv manbai o'zining quyi havzalaridan keng tarmoqlarga bo'linib ketgan Xalqajar, Qiziljar, Qizilsuv yoyilma o'zanlari bo'ylab tarkib topgan o'nlab katta-kichik hajmdagi bronza va ilk temir davri jamoalarining manzilgohlari o'rganilgan. Ana shunday yodgorliklar guruhi (Mullali manzili va qabristoni, Achamayli, Xotamtoy qabristoni, Mirshodi, Buyrachi 1, 2, Qiziljar, Qizilcha 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11) Mirshodi qishlog'i atroflarida mujassamlashgan bo'lib, bu mikrovohada ilk bor o'rganilgan Mirshodi qishlog'i nomi bilan Mirshodi mikrovohasi deb atalgan [4]. Mirshodi mikrovohasining yodgorliklaridan biri Mullali yodgorligi hisoblanadi.

1970-yilda G. A. Pugachenkova boshchiligidagi ekspeditsiya Mirshodi madaniy-iqtisodiy vohasida Mullali bronza davri qabristonini ochdi va uning o'rganilishi G. A. Pugachenkovaning 1972-yildagi nashrida [4] hamda T. V. Belyayeva, Z. A. Xakimovlarning 1973-yildagi nashrida [3] o'z aksini topdi. Taxminan 9 gektar maydonga ega Mullali aholi punkti shimoli-sharqdan ikki kilometr uzoqlikda joylashgan [8].

Bundan tashqari Oltinsoy tumani so'nggi o'rta asrlarga oid bo'lgan Katta Vaxshivor qishlog'ida joylashgan So'fi Olloyor masjidi 1961-yilda L. I. Rempel (Hamza nomidagi San'at tarixi institutining O'zbekiston badiiy ekspeditsiyasi) tomonidan o'rganilganligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. 1977-yilda Z. A. Arshavskaya tomonidan ham masjid tekshirilib, o'lchangan. Hozirgi kunda masjid qayta ta'mirlanib, butun viloyat qolaversa respublikadan tashrif buyuruvchi ziyoratchilar e'tiboriga havola etilgan.

Muhokama va natijalar.

Arxeologik yodgorliklari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi “Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari to'g'risida”gi 846-sonli qaroriga muvofiq Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanidagi 41 ta obyekt O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining taklifiga binoan Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan.

Mazkur ro'yxatda keltirilgan 41 ta obyektдан 35 tasi arxeologik obyektlar sirasiga kiradi. Bundan tashqari 1 ta obyekt (So'fi Olloyor masjidi) arxitektura yodgorligi va 5 tasi (Xo'jaipokota, Mavlono Zohid ziyoratgohi, So'fi Olloyor qabristoni, So'fi Olloyor ziyoratgohi, Qo'tirbuloq shifobaxsh suvi) diqqatga sazovor joylar sifatida e'tirof etilgan.

O'rta Osiyo arxeologiyasida qadimiy yodgorliklarning rayonlashtirish masalalari ko'p yillar mobaynida tadqiqotchilarning e'tiborini jalb etgan. To'plangan materiallardan yodgorliklarning ro'yxatga olish, ularning geografik yoyilishini aniqlash, savdo va madaniy

aloqalar yo'llari bo'ylab joylashishini qayd etib o'tish hamda tarixiy geografiyaning ayrim masalalarini o'rganishda foydalanilgan. Biroq arxeologik kartografiyasi ma'lumotlarining xo'jalik – madaniy tiplar, tarixiy – madaniy viloyatlarning shakllanishi va etnik geografiyasi muammolarini tadqiq etishda ham o'rni nihoyatda katta.

Oltinsoy tumanining arxeologik yodgorliklarini joylashish o'rnini davriy jihatdan bo'lib o'rganib chiqadigan bo'lsak, tadqiqot davomida o'rganilgan 44 ta yodgorliklar davriy jihatdan quyidagicha guruhlangan:

so'nggi bronza davriga oid yodgorliklar soni 6 ta,
 ilk temir davriga oid yodgorliklar soni 13 ta,
 kushon davriga oid yodgorliklar soni 6 ta,
 ilk o'rta asr yodgorliklari soni 5 ta,
 rivojlangan o'rta asr yodgorliklari soni 6 ta,
 so'nggi o'rta asr yodgorliklari 6 ta.

Yuqoridagi tahlil bo'yicha ayni bir yodgorlik bir va undan ortiq davrga oid bo'lishi mumkin. Masalan: Degreztepa kushonlar davriga hamda ilk hamda rivojlangan o'rta asrlarga oid yodgorlikdir.

O'rganilgan yodgorliklar orasidan bronza va temir davri yodgorliklari asosan Mirshodi vohasi hududida tarqalganligini ko'rishimiz mumkin. Shundan, 6 tasi bronza va 13 tasi ilk temir davriga oid.

Mirshodi vohasi bronza va ilk temir davri yodgorliklari

T/r	Yodgorlik nomi	Sun'iy yo'ldosh orqali olingan maydon o'lchamlari (kv.m)	Géographie Archéologique de la Province du Surkhan Darya 2004 (Sebastian Stride)	
			Berilgan raqam	Bet
Bronza davri yodgorliklari				
1.	Buyrachi tepa	Aniqlashning imkoni yo'q	Uz-SD-292	269
2.	Nomsiz tepa (Mirshodi)	Aniqlashning imkoni yo'q	Uz-SD-623	454
3.	Mullali	Aniqlashning imkoni yo'q	Uz-SD-499	390
4.	Mullali 2	Aniqlashning imkoni yo'q	Uz-SD-624	455
5.	Ochamayli tepa	Aniqlashning imkoni yo'q	Uz-SD-625	456
6.	Qiziljar tepa	Aniqlashning imkoni yo'q	Uz-SD-626	456
Ilk temir davri yodgorliklari				
1.	Qiziltepa	20782,56	Uz-SD-257	236
2.	Qizilcha	Aniqlashning imkoni yo'q	Uz-SD-258	237
3.	Qizilcha 1	Aniqlashning imkoni yo'q	Uz-SD-258b	239
4.	Qizilcha 2	Aniqlashning imkoni yo'q	Uz-SD-258c	239
5.	Qizilcha 3	Aniqlashning imkoni yo'q	Uz-SD-258e	240
6.	Qizilcha 4	Aniqlashning imkoni yo'q	Uz-SD-258d	240
7.	Qizilcha 5	Aniqlashning imkoni yo'q	Uz-SD-258f	241
8.	Qizilcha 6	Aniqlashning imkoni yo'q	Uz-SD-258a	238
9.	Qizilcha 7	Aniqlashning imkoni yo'q	Uz-SD-258g	241
10.	Qizilcha 8	9385,67	Uz-SD-258h	242
11.	Qizilcha 9	Aniqlashning imkoni yo'q	Uz-SD-258i	242
12.	Qizilcha 10	Aniqlashning imkoni yo'q	Uz-SD-258j	243
13.	Qizilcha 11	Aniqlashning imkoni yo'q	Uz-SD-258k	243

Bundan tashqari faqatgina bitta yodgorlik tuman markazidan 25 km shimoli-g'arbda, Tentaksoyning chap tomonida Obishir qishlog'ida joylashgan nomsiz tepalik ilk temir davriga oid.

Kushon davriga oid yodgorliklar

T/r	Yodgorlik nomi	Sun'iy yo'ldosh orqali olingan maydon o'lchamlari (kv.m)	Géographie Archéologique de la Province du Surkhan Darya 2004 (Sebastian Stride)	
			Berilgan raqam	Bet
1.	Degreztepa	3699,3	Uz-SD-189	171
2.	Nomsiz tepa	78717,35	Uz-SD-177	158
3.	Gul Ota qabristoni (Azlar tepa)	37909,12	Uz-SD-173	155
4.	Oq Ostona bobo tepa, Qo'rg'on tepa, Sayrak tepa	aniqlanmadi	Uz-SD-291	268
5.	Qoratepa qabristoni	15865,2	Uz-SD-567	425
6.	Tarag'aytepa	aniqlanmadi	Uz-SD-260	244

Mazkur yodgorliklar joylashish o'rniga ko'ra asosan 3 tasi (Degreztepa, Gul Ota qabristoni (Azlar tepa), Qoratepa qabristoni) Tentaksoyning chap tomonida, tuman markazidan uncha uzoq bo'lmagan masofada joylashgan. 1 ta yodgorlik (Tarag'aytepa) Tentaksoyning o'ng tomonida, 1 ta yodgorlik (Nomsiz tepa) Joilmasoyning chap tomonida hamda 1 ta yodgorlik (Sayrak tepa) Xo'jasoat soyining o'ng tomonida joylashgan.

Ilk o'rta asr yodgorliklari

№	Yodgorlik nomi	Sun'iy yo'ldosh orqali olingan maydon o'lchamlari (kv.m)	Géographie Archéologique de la Province du Surkhan Darya 2004 (Sebastian Stride)	
			Berilgan raqam	bet
1.	Ravshanboytepa (Xo'ja Burxon, Qilich ota)	18690,44	Uz-SD-180	161
2.	Muminqul tepa 2	aniqlanmadi	Uz-SD-560	421
3.	Munchoqtepa	aniqlanmadi	Uz-SD-210	191
4.	Mozortepa (Ipoq mozorot tepa)	13882,4	Uz-SD-207	189
5.	Sho'rtepa	4677,89	Uz-SD-183	163

Oltinsoy tumanida joylashgan ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklarning barchasi Tentaksoyning chap tomonida joylashgan. Shulardan 4 tasi (Ravshanboytepa (Xo'ja Burxon, Qilich ota), Muminqul tepa 2, Munchoqtepa, Mozortepa (Ipoq Mozorot tepa)) Xazarbog' kanalidan yuqori shimoli-g'arbiy qismda, bir-biriga yaqin bo'lgan qishloqlarda joylashgan. Ravshanboytepa Marmun qishlog'i markazida, Muminqul tepa 2 shu nomdagi qishloq markazida, Mozortepa va Munchoqtepa Jobu qishlog'ining kirish qismida joylashgan. Sho'rtepa yodgorligi esa qolgan yodgorliklarga nisbatan janubda, Tentak soyni chap tomonida Jolti qishlog'i markazida joylashgan.

Rivojlangan o'rta asr yodgorliklari

T/r	Yodgorlik nomi	Sun'iy yo'ldosh orqali olingan maydon o'lchamlari (kv.m)	Géographie Archéologique de la Province du Surkhan Darya 2004 (Sebastian Stride)	
			Berilgan raqam	Bet
1.	Qoratepa	3660,37	Uz-SD-195	177
2.	Eshon bobo (Butazor bobo tepa)	9246,98	Uz-SD-194	176
3.	Aymat tepa	5897,65	Uz-SD-174	156
4.	Oqtepa yodgorligi (Molxona tepa)	1247	Uz-SD-175	156
5.	Katta tepa	5841,5	Uz-SD-198	180
6.	Kokan tepa	aniqlanmadi	Uz-SD-200	182

Tentaksoy daryosining chap tomonida deyarli bir-biridan bir xil masofa uzoqlikda rivojlangan o'rta asrlarga oid 4 ta yodgorlik mavjud. Eshonbobo (Butazor) yodgorligi daryoning chap sohili yoqasida joylashgan. Yodgorlik oldida ko'p yillik tut daraxti hamda buloq joylashgan hovuz mavjud. Qoratepa yodgorligi Tentaksoy daryosi va Degrez suv ombori oralig'ida joylashgan. Oqtepa yodgorligi esa Degrez suv ombori yaqinidagi qo'shni Chep qishlog'i hududida joylashgan. Katta tepa yodgorligi Xazarbog' kanalidan shimolda Xo'jasoatsoydan janubi-g'arbda joylashgan. Bundan tashqari Tentaksoy daryosining o'ng tomonida rivojlangan o'rta asrlarga oid yana 2 ta (Aymat tepa,) yodgorlik mavjud. Aymat tepa yodgorligi daryo bo'yida va Kokan tepa yodgorligi esa Tentaksoy va Joyilmasoy oralig'ida (Jilibuloq qishlog'ida) joylashgan.

So'nggi o'rta asr yodgorliklari

№	Yodgorlik nomi	Sun'iy yo'ldosh orqali olingan maydon o'lchamlari (kv.m)	Géographie Archéologique de la Province du Surkhan Darya 2004 (Sebastian Stride)	
			Berilgan raqam	bet
1.	Shayitbobotepa (Eshon bobo)	4723,23	Uz-SD-220	200
2.	Qo'shtepa	7849,16	Uz-SD-181	162
3.	Kattatepa	6071,81	Uz-SD-182	162
4.	Muminqul tepa 1	aniqlanmadi	Uz-SD-559	421
5.	Qo'rg'on tepa	3688,53	Uz-SD-204	185
6.	So'fi Olloyor masjidi	aniqlanmadi	Uz-SD-611	447

So'ngi o'rta asrlarga oid 6 ta (Shayitbobotepa (Eshon bobo), Qo'shtepa, Katta tepa, Muminqul tepa 1, Qo'rg'ontepa, So'fi Olloyor masjidi) yodgorliklari birmuncha bir-biriga nisbatan tarqoq holda joylashgan. Muminqultepa 1, Kattatepa, Qo'shtepa yodgorliklari hazarbog' kanalidan yuqorida shimoli-sharqqa tomon ketma-ketlikda joylashgan. Muminqultepa 1 Muminqul qishlog'i markazida joylashgan bo'lib, so'nggi yillarda aholining

turar joy va tomorqaga bo'lgan ehtiyoji sababli yo'q bo'lib ketgan. Shayitbobo tepaligi (mahalliy xalq orasida Xo'jasabz yoki Eshonbobo deb ham nomlanadi) Tentaksoy daryosi o'ng tomonida daryo bo'yiga yaqin joyda joylashgan. Topilgan sopollarga ko'ra yodgorlik so'nggi o'rta asrlarga oid [2]. Yodgorlikda kichkina qabriston joylashgan. Qo'rg'ontepa yodgorligi Tentaksoy daryosining o'ng tomonida Karsagan qishlog'ida joylashgan. Katta Vaxshivor qishlog'ida shu nomdagi daryoning o'ng tomonida So'fi Olloyor masjidi joylashgan. L.I.Rempelning ma'lumotlariga ko'ra masjid 1713-yilda qurilgan [6].

Xulosa. Ushbu maqolada xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, Oltinsoy tumanidan topilgan tarixiy-arxeologik manbalarga asoslanib, voha hududida ziroatchilik bilan shug'ullanish usullari nihoyatda qadimiy va an'anaviy ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu yodgorliklarning eng qadimiylari so'ngi bronza va ilk temir davrlariga oiddir (A.S.Sagdullayev). Bu xulosalardan ko'rinib turibdiki, ajdodlarimiz Oltinsoy vohasini bundan 3-4 ming yil avval o'zlashtirib boshlagan va bu hududdagi hayot shakllari bir necha ming yillikka borib taqaladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 846-sonli Qarori 1-ilovasi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxati". <https://lex.uz/docs/-4543266>
2. Аршавская З.А., Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А., Средневековые памятники Сурхандарьи. Т., 1982.
3. Беляева Т.В., Хакимов З.А. Древнебактрийские памятники Миршаде. – В кн.: Из истории античной культуры Узбекистана. Ташкент, 1973.
4. Каримова Д.О. Шимолий Бактрия аҳолисининг дафн маросимлари ва диний эътиқодлари (Бронза даври моддий маданият ёдгорликлари мисолида). – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси Т., 2017.
5. Пугаченкова Г.А. Новый памятник древнебактрийской культуры. – В кн.: Успехи среднеазиатской археологии. Л., 1972, вып. I.
6. Ремпель Л.И. Народная архитектура предгорной зоны юга Узбекистана. — ИЗУ, IV, Т., 1969
7. Ртвеладзе Э.В. Древняя Бактрия. Предварительные сообщения об археологических работах на юге Узбекистана. // Л.: 1974
8. Сагдуллаев А.С. Культура Северной Бактрии в эпоху поздней бронзы и раннего железа. – Автореферат дис. Канд. Ист. Наук. Л., 1978.
9. Mission archéologique franco-ouzbègue (MAFOuz) de Bactriane.
10. Stride S. Géographie archéologique de la province du Surkhan Darya. – P., 2004. Vol. I-V.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).